



UMR QISQA ILM KO'P

Jaloliddin

Alloh taolo bu ojizona va kamtarona
ishga muvaffaqiyat ato etsin, uni
yaqinlarimiz uchun foydali qilsin va
unutish hamda xatolarimizni kechirsin.

Mundarija

Tush.....	1
Maqsad.....	2
Nima qoladi?.....	7
Kitob.....	10
Vatan.....	19
Iqtidor.....	26
Mo‘tadillik.....	31
Erkak.....	33
Negativ.....	37
1 yil.....	40
Erta uxlash.....	43
Ona.....	46
Ona kabi.....	49
Misollar.....	52

Tush

Odatdagidek tushlik vaqtida kompaniyamizdagi oshxonaga chiqdik. Hamma hamkasblar shu yerda edi. Bir akamiz ham ovqat tanlayotgan ekanlar, meni ko'rdi-da "Aka kitobingizni qachon o'qimiz?", dedi. Ichim shuv etdi. Sababi bu kitobni yozishni boshlaganimni men va Allohdan boshqa hech kim bilmas edi. Shu sabab ajablandim va so'radim, "Qanaqa kitob?". Akamizning tushiga kirgan ekanman 2 kun avval, tushlarida men kitob yozib o'tirgan ekanman. Eng qizig'i men ham bu kitobni yozishni 2 kun avval boshlagan edim.

Maqsad

Muhriddin akam bilan "Insonlar yolg'iz qola olmasliklari" haqida gaplashib qoldik. Juda qiziq mavzu, haqiqatdan ham biz yolg'iz qolishdan qo'rqamiz. E'tibor berganmisiz doim musiqa eshitib yuradigan insonlar bor, ayniqsa mashina haydovchilarda bu ko'p kuzatiladi, hech bo'lmaganda radioni yoqib qo'yishadi. Buning sababi yolg'iz qolmaslik uchundir. Yolg'iz qolishdan nima sababdan qo'rqamiz? Yo'q biz yolg'iz qolishdan emas balki o'zimizga savol berib qo'yishdan qo'rqamiz. Chunki javob bera olmaydigan minglab savollarimiz bor. So'ngra suhbatimiz mavzusi "Tafakkur" haqida bo'ldi va Muhriddin akam menga yoshliklaridagi tafakkurga oid voqealardan so'zlab berdilar. Eng qizig'i yoshlida tafakkur qilish uchun juda ko'p sabablar bo'lgan ekan lekin bilan uni nima ekanligini ham bilmaganmiz afsus. Hozir esa tafakkur nimaligini bilamiz lekin tafakkur qilishga kelganda...

Hatto osmonga qarashga ham "vaqtimiz" yo'q.

Inson o'rasida bo'lib tafakkur qilish mushkul ish hisoblanadi. Shu sababdan bo'lsa kerak tabiat va tog'larni yoqtiramiz.

Yolg'iz qolsak tafakkur qilamiz, tafakkur qilsak esa savollarimiz ko'payishni boshlaydi va u savollarga bizda javob yo'qligini ko'ramiz. Bu javobsizlik biz harakat qilishga, u javoblarni topishga undaydi.

Shu kunlarda o'zimga ko'p berayotgan savolim: "Mendan nima qolyapti?", savolidir.

Men bu insoniyatga bir foyda berib, o'zimdan manfaatli narsa qoldirib bu dunyo tark etamanmi yoki bir chang kabi yo'q bo'lib ketamanmi?

Bu savol meni har kuni qiynaydi.

Mendan qoladigani mol-dunyo emas balki ilm bo'lishimi xohlayman. Insonlar undan manfaat olsun, o'rgansin va uni o'rgatsin.

Avval ham kitoblar yozishga Alloh muvaffaq qilgan, bu uchun Allohga hamdlar bo'lsin. Bir muddat bu faoliyatimni to'xtatib qo'ydim. Ko'p o'yladim, kitob yozib to'g'ri qildimmi deb. Alhamdulillah bu ishimiz orqali oz bo'lsa ham manfaat bera oldik, sababi kitob haqida yaqinlarimizning taassurotlarini eshitib juda xursand bo'ldik. Ba'zi yaqinlarimiz shaxsan uchrashib kitob juda manfaatli bo'lganini va kitob orqali hayotida ijobiy o'zgarishlar qilayotganliklari haqida aytishdi, bu biz uchun bir Allohning marhamatidir.

Kitob yozishda davom etishimga sabab bo'lgan bir voqea bor. Ishda edim, bir akamiz kelib qoldi. Hal ahvol so'rashdik va akamiz kitoblarimni o'qiganliklarini aytib qoldilar. Juda sevinib ketdim. "Kitoblaringiz meni yaxshi tomonga o'zgarishimga sabab bo'ldi", deb aytganlarida o'zimni ko'z yoshdan arang tiyib turdim. So'ngra o'zimga o'zim va'da berdim, "Buyog'iga ham Alloh qodir qilganicha manfaatli kitoblar yozaman", deb.

Alloh taolo insonlarga turli yo'nalishlarda iqtidor taqdim etar ekan. Meni iqtidorim kitob yozishda bo'lsa ne ajab.

Odatda kitoblarim sermavzu va qisqa bo'ladi. Bunga sabab esa siz aziz kitobxonlarni zeriktirib qo'ymaslikdir. Kitob bu bir biznes bugungi kunda, men yozgan bir bet gaplarimni bemalol to'qqiz o'ng bet qilsam bo'ladi. Shunchaki shu mavzu atrofida aravani quruq olib qochsam bo'lgani. Afsuski shu kunlarda bunday asarlar talaygina.

Kitob yozishimizda maqsad pul emas, shu sabab ham kitobimizdagi betlar soni kam hamda faqat mavzu doirasida bo'lamiz. Bu kitoblarimiz kitoblarga oshno qiluvchi bir sabab bo'lsa biz xursand va maqsadimizga ham etishgan bo'lamiz.

Kitob nomida aytilganidek "Umr qisqa, ilm ko'p", shu sabab bu qisqa va sermavzu kitoblarimiz orqali sizga manfaatli ilm ulashishga harakat qilamiz.

Nima qoladi ?

Insonning o'tgan umri yaxshilik bo'lsa ham, yomonlik bo'lsa ham o'zining foydasi yoki zarariga bo'ladi. Lekin umrni ortga qaytarib bo'lmaydi. Har bir inson vafot etadi. Insonning vafot etishi bilan uning amali to'xtaydi. Faqat uch narsadan insonning a'molnomasiga savob borib turadi. Bulardan biri sadaqai joriyadir. Bu haqda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar:

"Inson vafot etganda uning amali to'xtaydi, faqat uch narsa tufayli uning noma'i a'moliga savob yozib turiladi"
"Sadaqai joriya, foydali ilm, duoyi xayr qiluvchi solih farzand".

Bu hadisda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam insonning bu dunyodagi qanday yashab o'tganligini tosh-u tarozisini aytib berdilar.

Sadaqai joriya nima?

Savobi doimiy oqib turadigan xayrli amal, xayrli ish. Manfaat keltiradigan xalqning og'irini yengil qiladigan, doimiy foydasi tegib turadigan foydali ishdur.

Misollar bilan ko'rib chiqsak:

Masjid qurish va ta'mirlash, chunki bu joylarda ibodat qilinishi davom etar ekan, quruvchiga savob yoziladi.

Foydali ilmiy kitoblar, maqolalar yoki boshqa ilmiy ishlar yozish. Bu asarlar o'qib-o'rganilganda yoki o'rgatilganda, muallifga savob yoziladi.

Qur'on kitoblari hadya qilish yoki ularni tarqatish. Har safar o'qilganida, hadya qiluvchiga savob yoziladi.

Odamlar ichimlik suvi bilan ta'minlanishi uchun quduq yoki buloqlar qazish. Har kim suv ichganida, quduq qazuvchiga savob yoziladi.

Maktablar, madrasalar yoki boshqa ta'lim muassasalarini qurish yoki qo'llab-quvvatlash. Ushbu muassasalarda ta'lim olayotgan har bir shogird uchun ustozlarga savob yoziladi.

Mevali yoki soyali daraxtlar ekish. Daraxt mevasidan yoki soyasidan foydalanilganda ekuvchiga savob yoziladi.

Mening YouTube kanalim ham shularga bir misol bo'lsa ne ajab. Hozirgacham video darsliklarimni ko'rib izohlar qoldirishadi, to'g'risi bu meni juda xursand qiladi.

Kitob

Odatda insonlarga kitob tavsiya qilib bo'lmaydi, sababi siz ularning og'riqlarini bilmaysiz. Og'riqlarini o'rganmay turib tavsiya qilsangiz, u kitob tavsiya bergan kishingiz manfaat ololmaydi. Inson shunchaki kitoblar o'qish bilan manfaat topmaydi, balki insonlar to'g'ri va yaxshi kitoblardan foyda oladilar. To'g'ri deganda aynan to'g'ri tanlangan degan ma'noda, u kitob sizning hozirgi boshdan kechirayotgan muammolaringizga yechim bera oladigan, uning ichidan amal uchun biron bir narsa olsa bo'ladigandir. Yaxshi kitob esa, avvalo keling yaxshi kitob deb qanday kitoblarga aytamiz shuni ko'rib chiqsak. Yaxshi kitob doim bizni fikrlashga undamog'i, quruq gap emas balki faktlarga yoki hayotiy tajribalarga asoslangan bo'lishi va vaqtga chidamliligi muhimdir, ya'ni siz o'qib olgan ilmingizni yaqin kelajakda ham qo'llay olishingiz kerak.

Sizga hech qanday savol bermay turib kitob taviya qilishayotgan bo'lsa biling u kitob sizga manfaat bermasligi ehtimoli katta. U kitob yoki qandaydir xizmat, maslahat bo'lsin ahamiyatsiz, avvalo qarshingizdagi insonning ehtiyojlarini aniqlash lozim va shu ehtiyoj asosida unga nimadir tavsiya qilsa bo'ladi.

Kitobni o'qish uchun muhtamul sabablar: Kitobni Inson ma'lum bir muddat qo'liga tushgan kitobni yoki kim tavsiya qilishidan qat'iy nazar o'sha kitoblarni o'qishga majbur bo'ladi va bu tabiiydir. Chunki kitob o'qishni endi boshlagan insonda kitoblar orasida tanlov qilish ilmi bo'lmaydi. Tanlov qilish ilmi, ko'p kitoblar mutolaasi ila hosil bo'ladi.

Kitoblarni Bodybuilder'lar qabul qiluvchi sport food'larga o'xshataman, Kreatin, Protein, Gainer va boshqalar. Bu sport food'larni shunchaki kundalik ovqatlaringiz o'rniga qabul qilib yurishingiz sizni baquvvat qilib,

muskullaringiz hajmini kattalashtirmaydi. Chunki bu sport taomlaridagi foydali modda va vitaminlar organizmga singishi uchun organizm tomonidan talab bo'lishi lozim. Talabni esa siz sport zaliga chiqib hosil qilasiz. Kitoblarda ham deyarli shunaqa, agar siz ongsiz ravishda ya'ni bemaqsad kitoblarni mutolaa qilib yuraversangiz ulardan manfaat olishingiz qiyin. U kitoblar ichidagi muhim ilmlarni miyangiz qabul qilishi va siz amal qilishingiz uchun sizda talab bo'lmasa hammasi foydasiz bo'lib chiqadi.

Agar inson muayyan ilmga muhtoj bo'lsa, uning ichki motivatsiyasi yuqori bo'ladi. Motivatsiya esa o'qish va o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Diqqat asosan o'sha ilmga qaratiladi, shu sababli inson miyasi muhim ma'lumotlarni ajratib olib, ularni uzoq muddatli xotirada saqlaydi.

Agar o'qilgan bilim darhol amalda qo'llanilsa (masalan, muammoni hal qilish yoki muhtojlikni qondirish uchun), bu bilim chuqurroq tushuniladi va uzoqroq esda qoladi. Nima sababda eslab qolish va xotira haqida so'z ochdik, chunki bu muhim ya'ni siz biron bir ilmga amal qilishingiz uchun u sizning esingizda bo'lishi lozim. Amaliy ehtiyoj, kitobdagi ma'lumotlarning haqiqiy hayotda qanday ishlashini tushunishga yordam beradi.

Muhtojlik hissi miyada emotsional jarayonlarni faollashtiradi. Emotsional bog'lanish esa o'rganilayotgan mavzuni chuqurroq anglash va uzoqroq eslab qolishga olib keladi.

Agar inson biror ilmga muhtoj bo'lmasa va shunchaki o'sha ilmni o'rganishni maqsad qilsa, o'qish jarayoni unchalik samarali bo'lmasligi mumkin.

Chunki:

- Motivatsiya past bo'ladi.
- Diqqat boshqa narsalarga chalg'ishi mumkin.
- O'qilgan ilm hayot bilan bog'lanmagani uchun unutib yuborilishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Inson bir ilmga ehtiyoj sezganda va o'sha ilmga oid kitobni o'qiganda, o'rganish jarayoni samaraliroq bo'ladi. Shuning uchun o'qishdan oldin ehtiyoj va maqsadni aniqlab olish juda muhim. Shu maqsadga asoslangan holda o'qilgan kitoblar ko'proq foyda keltiradi.

Siz qanday ilmga ehtiyoj sezayotganingizni aniqlasangiz, shu yo'nalishda kitob o'qishni boshlashingizni tavsiya qilaman. Bu nafaqat samarali, balki motivatsion ham bo'ladi.

Miya haqida gap ketganida dofamin haqida ikki og'iz gapirib o'tmasak bo'lmaydi. Miyaning ishlashida dofamin degan neyrotransmitter katta rol o'ynaydi. Agar inson biror narsaga ehtiyoj sezsa (muammo yechimi, maqsadga erishish yoki qiziqish), dofamin darajasi oshadi. Bu o'rganish va eslab qolish jarayonini faollashtiradi. Dofamin yuqori bo'lganda, o'zlashtirilgan ma'lumot xotirada uzoqroq vaqt saqlanadi va kerakli vaqtda tez esga tushadi.

Agar siz chet elga sayohat qilishni rejalashtirsangiz va English tilni bilmasangiz, o'sha tilda gaplashish muhtojligi kuchayadi. Bu holatda til o'rganish samaradorligi yuqori bo'ladi, chunki ehtiyoj dofamin ishlab chiqarishni oshiradi.

Ko'p til o'rganayotgan yoshlarni ko'ramiz, ularda hech qanday ehtiyot yo'q, ehtiyoj ham mayli ularda hech qanday maqsad yo'q. Shu sabab ham ularda dangasalik bor. Ilmga bo'lgan ishtiyoq haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Ularga Ota-onalari tomonidan u tilning shunchaki kerakligi haqida aytilgan bo'ldi. Bu holatda yoshlarda qayerdan ishtiyoq bo'lsin. Kattalar va yoshlar o'rtasida munosabatlardagi muammolar juda ko'p. Bu muammolarning yechimi aynan kattalarining yoshlarga bo'lgan yondashuvini to'g'rilash bilan bo'ladi. Bu mavzu ham alohida xulosa qilinishi va bu mavzu uchun alohida bob ajratilishi lozim.

Ehtiyojdan tashqari bizda maqsad ham bo'lishi lozim. Agar o'rganish jarayoni muayyan maqsadga asoslangan bo'lsa:

- O'quvchi ma'lumotni tanlash va saralashga e'tibor beradi.

Ya'ni sizda endi maqsad bor va siz to'g'ri kelgan kitobni o'qib ketavermaysiz. Chunki sizda maqsad bor va siz faqat shu maqsad tomon olib boradigan ishlarni qilasiz, kitoblarni ham shunga qarab tanlaysiz albatta.

- Har bir olingan bilim real hayotdagi maqsad bilan bog'lanadi.
- Miyaning assotsiativ qobiliyati faollashadi: ya'ni, yangi bilimlar eski bilimlar bilan bog'lanib, bir tizim hosil qiladi.

Inson biror ilmga ehtiyoj sezganda, miyasi bu ma'lumotni qidirishga kirishadi. Ushbu jarayon aqliy "ochlik" yoki bilimga chanqoqlik deb ataladi. Bunday paytda o'qilgan kitoblar miyaning qiziqishini qondiradi va ilmni o'zlashtirish osonroq bo'ladi. Aksincha, agar inson o'ziga muhim bo'lmagan kitobni o'qisa, bu jarayon majburiyatdek tuyuladi va motivatsiya pasayib ketadi.

Endi yana bir juda qiziq savol tug'iladi, agar inson muayyan ilmga ehtiyoj sezmasa ham, o'rganish samarali bo'lishi mumkinmi ?

Albatta mumkin lekin bu holatda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

1. Birinchi navbatda qiziqish. Agar inson bir mavzuga qiziqsa, haqiqatdan ham bu mavzuni o'rganishga ishtiyoqi bo'lsa ehtiyoj bo'lmasa ham bu mavzuni yaxshi o'zlashtiradi.

2. Ikkinchi omil esa albatta atrof-muhit. 5ta millioner haqida eshitganmiz hammamiz. Bu juda muhim omillardan hisoblanadi. Sizga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi narsa atrof muhitdir. Deylik 5ta do'stingiz English tili o'rganyapti, katta ehtimol bilan u tilga bo'lgan qiziqish sizda ham uyg'onadi va tez orada siz ham til o'rganishni boshlaysiz. Atrof muhit va do'stlar mavzusiga ham alohida bob ajratish lozim bo'ladi.

Vatan

Maktab davrida bizga "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi" nomli darslar o'tilar edi, hamma eslasa kerak. Bu darslardan maqsad esa o'quvchilarda qaysidir ma'noda vatanga muhabbatini oshirish bo'lgan. Bunga erishgan erishmaganligi boshqa masala, hozirgi kunga qarab xulosa qilsak bu darslarning foydasi bo'lmagan.

Insondagi vatanga bo'lgan muhabbatni dars orqali uyg'otish qiyin masaladir. Bu holatda darsni kim o'tishi va qanday manbaga tayangan xolda o'tishi muhimdir.

Bu darslar orqali o'quvchiga qaysidir g'oyani singdirish emas balki darsdagi mavzular va tushunchalar orqali ularni tafakkur qilishga undash lozim. Insonning haqiqiy vatandosh bo'lishi uchun uning tafakkur qilishi juda muhimdir.

Insondagi har nega muhabbat tafakkur orqali keladi. Vatanga, Ota-onaga, do'stlarga, o'z kasbiga xullas agar tafakkur qilmas ekansiz na unga shukr qilasiz va na muhabbat qo'ya olasiz.

Vatan haqida tafakkur avvalo sizga Vatan sabab sizda bor ne'matlarni his qilishingizga sabab bo'ladi.

Bu mavzu haqida gap ketganida bir hadis esimga tushadi:

“Kim tongni o'z joyida tinch holda, tanasi sog', bir kunlik rizqiga ega holda keltirsa, go'yo unga butun dunyo va uning ichidagi narsalar berilgandek bo'ladi.”

(Imom Termiziy rivoyati, Jomi' as-Sahih)

Bu hadisda uch muhim ne'matlar tilga olingan:

1. Tinchlik
2. Sog'liq
3. Bir kunlik rizq

Avvalo bu uch ne'matning bir insonda jamlanishi juda katta narsa. Tinchlik bu ulug' bir ne'matdir. Buni shu kunlarda dunyoda bo'lib turgan hodisalardan ham anglab olish qiyin emas. Ijtimoiy tarmoqlarda yurtimizdagi tinchlikni ya'ni osmonimiz musaffo ekanligini hazil qilib chiquvchi toifalar ham mavjud. Bundan toifadagi insonlarni G'azo yoki Ukrainaga yuborish kerak, ana o'shanda osmon musaffoligi nima ekanligini yaxshilab tushunib yetishadi. Agar tinchlik bo'lmasa hech narsa tatimaydi insonga, na uning sog'lig'i va uning ovqati. Tinchlik bo'lmasa tabiiy inson salomatligiga jismonan yoki ruhan zarar yetadi. Urush bo'layotgan davlatlarning xalqiga qarang ular ruhan juda zaif bo'lib qolishgan.

Tinchlik bo'lmasa insonning tomog'idan bir burda non ham o'tmaydi. Tasavvur qiling siz yashayotgan shaharga bombalar kelib tushmoqda, siz ishtaha bilan ovqat yeya olasizmi, albatta yo'q. Insonda ishtaha bilan taomlanishi uchun avvalo u xotirjam bo'lmog'i lozim.

"Patriot" man va bundan faxrlanaman. O'zbekiston haqida turli negativ gaplar bo'lsa to'g'risi jahlim chiqib ketadi. Har bir vatandosh shunaqa bo'lishi kerak meningcha. Ustozimizni bir savollari yodimga tushdi: "Siz hozirgi holatingizdan yaxshirog'iga loyiqman deb o'ylaysizmi?", degan edilar. Alloh bizga shu vatanni berdimi demak biz bunga loyiqmiz, xalq o'laroq.

O'z vatanimizdagi kamchiliklarni dovoy solib ijtimoiy tarmoqlarga olib chiqqanda ko'ra shu kamchiliklarni bir vatandosh sifatida hal qilishga, isloh qilishga urinsak ana o'shanda bir nimaga erishamiz.

Islahotni inson avvalo o'zidan so'ng oila, qarindosh urug', mahallasidan boshlamog'i lozim. Ba'zan hayron qolasan kishi, o'zini isloh qilmaganlar chiqib O'zbekiston siyosatini isloh qilishni xohlab qolishadi. Sen bu vatandan kutayotgan adolatni avvalo oilangga qil, oila bu vatandir. Oila isloh bo'lsa vatan isloh bo'ladi. Hech bir islohot ilmsiz bo'lmaydi. Quruq gap bilan bir nimaga erishib bo'lmaydi.

Taksida ko'p yurganim sabab insonlarning davlatdan nolishini ko'p eshitaman. Bir kuni ishdan qaytayotgan edim. Odatdagidek metrodan chiqib taksi ushladim. Mashina salonida hamma erkak kishilar. Bir mahal siyosat haqida so'z boshlab qolishdi. Bunaqa suhbatlardan to'g'risi ensam qotadi. Shaytanat bosh qahramoni Asadbek aytganidek "aqling yetmagan ishga aralashma", deging keladi bularga.

Taxminan bir soat yo'lda bo'lgan bo'lsak hech bir mavzu qolib ketmadi. Radar deysizmi, asfalt deysizmi yoki budjet taqsimoti xullas buyuk siyosatchilar bilan ketayotgan ekanman.

Xo'p shuncha muammolarni bilar ekansizlar, qay biringiz shu muammolarni isloh qilish uchun bir qadam bo'lsa ham harakat qildinglar? Yo'q, yo'q gap harakatga kelganda hamma jim turadi. Vatanning rivojlanishi uchun nima ish qilding shu yoshingacham?

Inson ta'sir o'tkaza oladigan va o'z yo'nalishidagi ishlarga aralashishi bu go'zaldir.

Inson avvalo o'zi bilan o'zi kelishib olib yo'nalish tanlashi va shu yo'nalish, shu kasb orqali vatanga manfaat berishi lozim. Baland parvoz gaplar o'rniga harakatga kirishaylik.

Vatandan noliydigan insonlar odatda katta yoshli insonlar bo'ladi. Vazirlar yoki hokimlar haqida gapirib qolishadi. Ular xalqni o'ylamasligi, bir tinga qimmat insonlar shu lavozimlarda o'tirishgani, xullas ularning orzusidagi mansabdorlar emas ular. Endi ularga savol bersak "Nima uchun o'zingiz shu lavozimga o'tirmadingiz?", deb. Akaxonlarimiz jim. Nima uchun haqiqatdan ham, sizda ham bu imkoniyat bor edi. Shunchaki dangasa bo'lganligingizni, sizning oilaviy sharoitingiz oqlay olmaydi. Shunchaki siz harakat qilmagansiz. Eng qizig'i shu noliyotgan insonlarning farzandlariga ahamiyat bersangiz, xuddi shu ahvol bo'ladi. Ey inson nologandan ko'ra o'z farzandlarini tarbiyasi va ilmi bilan mashg'ul bo'lgin, baraka topkur.

Iqtidor

Alloh taolo har bir bandaga o'ziga yarasha iqtidor ya'ni talant taqdim etgan. Bu har birimizda bor, kimdir buni izlab topgan kashf qilgan lekin hamma ham emas. Iqtidoringizni siz o'zingizdan o'zingiz birdan anglab qolmaysiz. Bu narsa kunlar, oylar, yillar mobaynida kashf etilib keladi va siz bu iqtidorlaringizni kashf qilish uchun har xil sharoitda va vaziyatlarda bo'lishingiz kerak.

Inson o'zidagi mavjud iqtidorlarga asoslangan holda o'zi uchun bu hayotdagi missiyani ishlab chiqadi.

Insondagi yangi iqtidorlarni kashf bo'lishi uning yangi faoliyatni boshlashi uchun sabab bo'lishi mumkin. Shu sabab ham insonlar kasblarini va yo'nalishlarini o'zgartirib turadilar.

Ayniqsa hozirgi kundagi yoshlarda bu jarayon juda tezlashgan, chunki ularning iqtidorlarini kashf etilish vaqti ham juda qisqargan.

Inson maktabni bitirganida ma'lum bir yo'nalishda o'qish yoki ishlashni boshlaydi. Chunki insonda maktab davri mobaynida turli iqtidorlari kashf bo'ladi va tanlangan o'qish va ish faoliyati ham aynan shu kashfiyotlarga tayangan holda bo'ladi.

So'ngra ma'lum bir muddat bir yo'nalishda o'qiydi, ishlaydi va unda yana boshqa qobiliyat va iqtidorlar kashf bo'ladi va shakillanadi. Men maktabni bitirgan paytim bizda ikki tanlov bor edi: maktabda o'qishni davom ettirish yoki kollejga o'qishga kirish. Men kollejni tanlaganman va doim bundan afsuslanib kelar edim. Chunki men kollej uchun umrimning 3 yilini sarf qilganman.

Lekin hozirgi sizga tushuntirib bermoqchi bo'lgan narsani anglab yetmaganimda hozir ham afsuslanayotgan bo'lar edim.

Kollej mendagi juda ham ko'p iqtidorlarimni kashf qilishimda va menda muhim ko'nikmalarni shakillanishiga sabab bo'lgan.

Axborot texnologiyalari yo'nalishida o'qishni boshladim. Yetuk dasturchi bo'lishni maqsad qo'ydim va Ummatga eng foydali "startup"lar orqali manfaat berishni o'zimga missiya qilib oldim.

Bu o'qishim davomida mendagi yangi iqtidorlarim kashf qilina boshladi. Biron bir mavzuni yoki narsani insonlarga osonlik bilan tushuntirib berish men uchun qiyinchilik tug'dirmasligini angladim va bu iqtidorim orqali yangi yo'nalishga qadam qomdim.

Ingliz tili bo'yicha Ustozlik faoliyatimni boshladim. Mendagi missiya yoshlarga nafaqalat tilni balki tarbiyani ham o'rgatish edi. Alhamdulillah bu menda juda yaxshi o'xshadi.

Bu Ustozlik faoliyatida ham mendagi juda ko'p konikmalar shakillandi va iqtidorlar kashf bo'ldi va men bularga suyanib yangi yo'nalish, inson resuslarini boshqarish (HRM) yo'nalishiga kirib keladim va hozirda bu faoliyatni olib bormoqdaman. Ustozlikda mendagi insonlarni boshqarish va ularga ta'sir o'tkazish ko'nikmalarim shakillandi. HR menejerlik faoliyatimda ham albatta missiya bor: kompaniyaga profissional xodimlarni jalb qilgan holda bizning kompaniyani rivojlatirish va bu orqali O'zbekistondagi yoshlarga zamonaviy kasblar bo'yicha ta'lim berish va ularni kasbli qilish. Ularning kasbli bo'lishi orqali esa Ummatni yanada qudrali va rivojlangan qilish.

Hozirgi kundagi faoliyatimda ham mendagi yangidan yangi iqtidorlarim kashf qilinayapti va bu tabiiy. Kelgusida boshqa yo'nalishda ish boshlashim ham bu tabiiy hisoblanadi, chunki inson hozirda unda bor ko'nikma va iqtidorlarda kelib chiqin tanlov qiladi.

Oliy ta'limda 4-kursda o'qiyotgan talaba ortiga qarab nima uchun bu yo'nalishni, bu universitetni tanlaganman deb hayron qoladi. Chunki u hozirgi holatidan kelib chiqib xulosa qilyapti lekin u o'qishga topshirgan payti esa bu u uchun eng to'g'ri tanlov bo'lgan.

Xulosa shundagi, har qanday faoliyat insonning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Undagi muhim ko'nikmalarni shakillanishi hamda iqtidorlarni kashf bo'lishiga sababdir. Shuning uchun doim turli yo'nalishlarda o'zingizni sinab ko'rishdan qo'rqmang.

Mo'tadillik

Alloh taolo bizni mo'tadil bo'lishga chaqiradi. Buning sababi esa biz nimani me'yorida oshirib yuborsak u bizning zararimizga ishlay boshlaydi.

Ortiqcha samimiyat odatda hurmatsizlikka olib keladi. Bunga hayotimda ko'p guvoh bo'lganman. Samimiy munosabatda bo'lgan insonlarimdan hurmatsizlik ko'rganman. Gap ularning hurmatsizlik qilganida emas balki men ularga me'yoridan ortiq samimiylik qilib yuborganimda edi.

Ortiqcha muhabbat ham nonko'rlikka olib keladi. Ko'p voqealar bo'lib o'tgan bu borasida. Inson biriga muhabbat ila muomala qiladi lekin evaziga umuman boshqa narsa oladi. Muhabbat me'yoridan oshib ketsa uning qadri tushib boradi.

Ortiqcha yaxshilik ham suiiste'mol qilinadi. Me'yoridan oshirib yuborsangiz xuddi siz ularga "должен" kabi bo'lib qolasiz. Ular sizdan foydalana boshlashadi.

Hatto dinimizda ham mo'tadillik talab qilinadi. Dinda g'uluvga ketishdan qaytariladi.

Mo'tadillik bu ziqnalik va isrofning oltin o'rtaligini topishdir.

Erkak

Oxirgi paytlarda men eshitayotgan yoki guvohi bo'layotgan ko'p ko'ngilni xira qiladigan ishlar ba'zi erkak deyishga arzimaydigan hatto inson deb ham bo'lmaydigan kimsalar tomonidan sodir etilyapti.

Ko'p ajrashuvlarga ham erkakligini unutganlar sabab bo'lmoqda.

Biz erkak kishimiz, oldimizda kim bo'lishidan qat'iy nazar biz o'z holimizda qolishimiz ya'ni erkak bo'lib turishimiz lozim.

Ba'zan ayol kishiga qo'l ko'targan "polvon"larni ham eshitib qolamiz. Ayol kishiga qo'l ko'tarish uchun inson qanchalar pastkash bo'lishi kerak ekan-a?

Ba'zan emas balki juda ko'p eshityapmiz!

Haqiqiy erkak:

Ikki jag'i orasidagi va ikki soni o'rtasidagi narsaga javob bergan. G'azabi kelganida uni boshqara olgan insondir.

Bir oilani qizini xotin qilib olishdan avval yaxshilab o'ylaylik. Oilaviy hayot faqat bir kunlik to'ydan iborat emas!

Ota-Onalar ham farzandining oilaga tayyorligini to'g'ri baholay olmog'i lozim. Bo'yi yetib qolipti, endi tezroq to'yini qilishimiz kerak demasdan!

Sizlarning orzu havasingizni deb bir oilaning qiziga jabr bo'lmasin.

Yigitlar ozgina farosatini ishlatmog'i kerak. Bizning topayotgan pulimiz-u, mansabimiz oilaviy hayotning asosi emas!

Kerak bo'lsa pul bilan hal qilib bo'lmaydigan narsalar bor oilaviy hayotda. U ishlar ilm bilan, farosat bilan hal qilinadi.

Bu ikkisidan asar ham yo'qlar oila qurayotganiga hayron qolasan kishi. Eng qizig'i ko'p o'tmasdan aniq ularning oilasida bir mojaro chiqib turadi-da.

Yigitlarga maslahatim:

Ustozingiz bo'lsin!

U insondan ilm oling. Maslahat qiling.

Ko'p xato ishlar maslahat olinmagani yoki xato insondan maslahat olingani sabab sodir bo'ladi.

Farosatingiz bo'lsin!

U bilan boshqa oilalardan o'rnak oling yoki xulosa chiqaring.

Sovuqqon bo'ling!

Hissiyot bilan ayollarga o'xshab qaror qabul qilish eng xato ishlardan biridir. Yuqoridagi aytilgan gap:

Nima bo'lishidan qat'iy nazar biz o'z holimizda qolishimiz ya'ni erkak bo'lib turishimiz lozim.

Bu postni yozishimga atrofdagi ko'p voqealar sabab bo'ldi va bu mavzu juda jiddiy deb hisoblayman.

Negativ

Qayoqqa qarama hamma asabiy va salbiy kayfiyatda. Ularni ko'rgan odam hayot rostdan ham shunaqa ekan deb yuboradi.

To'g'ri hayotda salbiy hodisalar va voqealar juda ko'p bo'ladi, hech birimiz bundan omonda emasmiz. Lekin bu hayotdan ijobiy narsalar ham bor-ku!

Insonlarga negativ bo'lish yoqadimi bilmayman.

Ba'zida shunaqangi kichik narsalarga salbiy munosabatda bo'lishadi, hayron qolasan kishi.

Eng yomon bu salbiylik nafaqat ularning o'ziga balki yon-atrofdagilarga ham ta'sir qiladi.

Ishga kelayotganimda va ketayotganimda, yo'lda juda ko'p hodisalarga guvoh bo'laman. Ayniqsa haydovchilar juda asabiy. Yo'ldagi har bitta mashina bilan nimadir sabab janjal qiladi, so'kadi, norozi bo'ladi. Bir birlarini hurmat qilish juda kam kuzatiladi.

Bir kitobda o'qib qolgan edim:

Tasavvur qiling siz daryo qirg'oqda turibsiz va siz shu joyda turishingiz kerak. Lekin siz daryodan o'tayotgan har bir qayiqlarga chiqib olyapsiz. Ma'lum bir vaqt o'tgach xato qilganingizni tushunib yetib, qayiqdan sakrab yana qayta o'sha joyingizga mashaqqat bilan suzib qaytyapsiz.

Bu insonlarning har bir hodisaga e'tibor qaratishi va unga munosabat bildirishiga o'xshaydi.

Holat emas munosabat o'zgaradi, shu sabab avvalo munosabatimizni o'zgartiraylik.

Hayotingizda nima bo'layotganidan qat'iy nazar hammasi Allohning nazorati va irodasi bilan bo'lyapti.

Shu sabab qaro va qadarga iymon keltirgan kishida bo'layotgan hodisalarga bu kabi salbiylik bo'lmaydi.

1 yil

O'zbekistonda maktabni bitirgan o'quvchilar odatda universitet yoki institutlarga hujjat topshiradilar. Eng qizig'i ular hali qaysi yo'nalish bo'yicha ketishi, qaysi kasbni egallashi haqida deyarli hech qanday qarorga kelmagan.

Maktabni bitirib birdaniga Oliy ta'limga topshirish qanchalik to'g'ri?

Hali qiziqishlari haqida to'liq bilmasdan turib bir yo'nalishni tanlab, yetmaganiga u yo'nalishdan 4 yil ta'lim olish, bu insonni ajablantiradi.

Men hali Oliy ta'limga hujjat topshirmaganman ham. Vaqt o'tgani sani bunga xohishim ham so'nib bormoqda. Chunki 4 yil umri bekor ketgan insonlarni ish jarayonida ko'p uchratyapman.

Bakalavrda bir yo'nalishda o'qib hozir esa umuman boshqa yo'nalishda ish boshlamoqchi bo'lganlar. Ular ham mayli hatto Magistrni bitirib umuman boshqa yo'nalishda 0 dan ishga kirib, qayta boshqa yo'nalishni o'rganayotganlar ham juda ko'p va men bunga kun ora guvoh bo'lyapman.

Afsus bu holatga Ota Onalar ham katta sababchi bo'lib qolishyapti!

Ularda hali ham Oliy ta'limga, diplomga nisbatan qarashlari umuman eskicha. Chunki "CCCP" paytida Oliy ta'lim va diplom masalasi juda muhim bo'lgan.

Ota Onalar farzandlariga o'zlarini topishlari uchun ma'lum bir muddat berishlari lozim. Yarim yil yoki 1 yil. Bu vaqt mobaynida farzand barcha qiziqishlarini sinab ko'rishi, turli ishlarni qilib turli tajribalar orttirishi mumkin.

Agar Ota-Onalar avvaldan to'g'ri yondashuv qilsa bu 1 yilga ham hojat qolmaydi. Farzandining qiziqishlarini maktablik chog'idayoq aniqlab unga yo'naltirilsa hammasi maromida bo'ladi.

Oliy ta'limga kirishdan avval yaxshilab o'ylab, reja qiling! Siz topshirmoqchi bo'lgan o'quv yurtlarida hozirda tahsil oluvchi insonlarni topib ulardan maslahat oling. Chunki ular u yerdagi vaziyatdan xabardor. Kutuvlaringizni ularga ayting va u yerdagi holatga ularni solishtiring.

Bir joyga ishtiyoq bilan kirib, so'ngra hafsalasi pir bo'lganlar qancha...

Bu juda jiddiy qaror, shu sabab Ustozlar, ilimli insonlar va ilimli akalar bilan bu masalani maslahat qilish lozim.

Erta uxlash

Biz ahamiyat bermaydigan bir narsa bor. Erta turish haqida o'ylaymiz lekin erta uyquga yotish haqida unutib qoyamiz. Erta uxlash erta uyg'onishimizning eng muhim omillaridan biridir.

Erta uyg'ona olmayotganlar bilan aniq erta uyquga yotish bo'yicha muammo bor.

Ba'zilar erta yotaman lekin uxlay olmayman, ko'zimga uyqu kelmaydi deyishadi. Menimcha bu muammo barchamizda bor. Buning o'ziga yarasha sabablari bor:

1. Ko'p o'ylash.

Inson kun davomidagi voqea va hodisalarni tabiiy uxlashga yotganda ham o'ylaydi ya'ni o'ylashda davom etadi.

Bunga bir yechim bor:

Uxlashdan avval barcha o'ylayotgan narsalaringizni qog'ozga tushirasiz. Bu bilan deyarli barcha o'y-fikrlardan qutulasiz.

2. Xona haroratining issiq ekanligi.

Inson issiq havoda deyarli uxlay olmaydi. Agar xona harorati 23 gradusdan yuqori bo'lsa uxlash juda qiyin bo'ladi.

Bunga yechim har bir insonning sharoitidan kelib chiqadi. Agar uyingizda konditsioner bo'lsa undan foydalanib xona haroratini me'yoriga keltirib uxlashingiz mumkin lekin uni yoqib qo'yib uxlash umuman tavsiya etilmaydi. Yoki xona derazalarini ochib xonani shamollatish bilan bo'lishi mumkin.

3. Inson jismonan charchamaganligi.

Bizning holatda ko'pincha insonlar faqat aqliy charchashadi lekin buni jismoniy deb ham o'ylaydi. Agar inson jismoniy jihatdan zo'riqmagan bo'lsa tabiiy uyqu kelmaydi.

Kunning ma'lum soatimi sport uchun ajratish bu holatni yaxshilanishiga olib keladi.

Bundan tashqari ham juda ko'p sabablari bor va bu sabablar har bir insonda har xil kechishi mumkin. Istisno holatlar ham ko'p.

Eng avvalo tanangizni ya'ni o'zingizni o'rganing!

Ona

Nima uchun Alloh Qur'ondan Ota-Onaga yaxshilik qilishga buyuradi-yu lekin orqasidan Onaning chekkan mashaqqatini gapiradi?

Nima uchun Onaning farzandi uchun qilgan yaxshiliklarini Alloh eslatmoqda?

Buning sababi:

Onaning qilgan yaxshiliklari farzand go'daklik paytida, ya'ni esini tanimaydigan paytda bo'ladi. Onaning qilgan yaxshiliklarini bola ko'rmaydi. Otaning yaxshiliklari esa farzand ulg'aygach ko'proq bo'ladi. Farzandni o'qitish, kiyim-kechak, uylantirish va h.k. Farzand Otasining yaxshiliklarini esini tanigan payti ko'radi. Shu sabab ham Alloh bizga Onalarimizning bizga qilgan yaxshiliklarini eslatmoqda.

Onaga, Onaga, Onaga so'ngra Otaga.

Bu jumlani hammamiz eshitganmiz. Hech o'ylab ko'rganmisiz nima uchun uch marta Onaga so'ngra Otaga yaxshilik qilish aytilgan?

1. Onamiz bizni to'qqiz oy qornida ko'tarib yuradi. Bu ishning qanchalik mashaqqat ekanligini faqat Onalar qiladi lekin shikoyat qilishmaydi. Agar bu ishning mashaqqatini bilmoqchi bo'lsangiz qorningizga tosh bog'lab bir kun yurib ko'ring.

2. Onamiz bizni dunyoga keltirishda bir o'limdan qolgan. Tug'ruq mashaqqati Onamizni holsiz va zaif qilib qo'ygan. Organizmdagi deyarli barcha vitaminlar yo'q bo'lgan. Barchasi biz uchun sarf bo'lgan.

3. Dunyoga keltirganlaridan so'ng bir yoki ikki yil o'z suti bilan oziqlantirgan. Bizga kerak bo'lgan barcha ozuqalar bilan ta'minlaganlar. Kunning qaysi qismida bo'lishidan qat'iy, qornimiz ochdimi bo'ldi, hamma ishlarini tashlab bizni qornimizni to'ydirishgan.

"Ona sevgisi hamma narsadan kuchli va sof bo'ladi" Lev Tolstoy

Ona kabi

Kecha muzdek suv ichib qo'ydimmi bilmadim, ertalab tursam tomog'im ishib ketibdi, arang yutinardim. Shu sabab ishga kelayotganimda dorixonaga kirdim. Biror dori bo'lsa o'liman, bu holatda ishlab bo'lmaydi deb. Rayhon oilaviy restorani orqasi bir dorixona bor, o'rangan bir ayol ishlaydi, shu joyga kirdim.

Dorilarni unchalik farqiga bormayman shu sabab u yerdagi O'padan bu masalada maslahat so'radim. Opa xuddi o'z farzandiga dori tanlab berayotgandek edi go'yo. Dorilarning qay biri yaxshi va meni holatimga qay biri mos kelishlarini tushuntirib, izohlab berdilar. To'ri bu ularning ishi, lekin u insondagi mehr va fidoiylilik sezilib turar edi. Boshqa dorixonalarda men uchratmagan bir narsa ham bor edi. Dori sotib olganimdan so'ng, Opa: "Alloh shifo bersin, tuzalib keting", dedilar.

Mening tuzalishim umuman olib qaraganda dorixona uchun zarar. Kasalligim davom etib ulardan yana dori sotib olsam bu yaxshi.

Bunda olgan xulosam shuki: Insonlar boshqalarga doim yaqin insonidek munosabatda bo'lsalar, Onalar barchaga farzandidek, Otalar ham. Yigitlar qizlarga opasi yoki singlisidek.

Ya'ni, tasavvur qiling siz mevalar sotasiz, oldingizga bir ayol meva xarid qilish uchun keldi, edi siz u ayolni xaridor emas balki Ona sifatida qarasangiz u ayolga issiq urgan yoki chirigan mevani sotgan bo'lar edingizmi?

Tasavvur qiling siz Ustozsiz, sinfda o'tirgan bolalarni o'quvchilar emas balki farzandlaringiz sifatida qabul qilsangiz, ularga shunchaki bir soat o'tishi uchungina ko'zbo'yamachilik bilan dars o'tgan bo'larmidingiz?

Tasavvur qiling siz Rahbarsiz, qo'l ostingizdagilarga ishchilar emas balki ukalaringiz sifatida qarasangiz, ularga qilayotgan mehnatiga arzimaydigan haq to'lagan bo'larmidingiz?

Nafaqat bu misollar, keling boshqa ko'rinishdagi misollarni ham ko'rsak.

Siz tozalik xodimasisiz, ishlayotgan joyingizni korxona emas uyingiz sifatida ko'rsangiz, rahbar ko'rmaydigan joydagi changlarni artmagan bo'larmidingiz?

Ko'chadagi daraxt meva solib yotibdi, bu daraxtni uyingizdagi o'zingiz ekan daraxt sifatida qabul qulsangiz, uning mevalarini olish uchun shoxlarini sindirgan bo'larmidingiz?

Barcha misollarni chetga olib qo'yib, shunchaki Alloh doim bizni ko'rib turganini eslashimiz va barchamiz bir-birimizga birodar ekanimizni unutmasligimizni o'zi yetarlidir.

Misollar

Agar insonlarga nimanidir tushuntirishga to'g'ri kelib qolsa, odatda har kuni bu ish sodir bo'ladi, doim ularga misollar orqali tushuntirishga harakat qiling. Ustoz sifatida faoliyat yuritganimda ham doim shu qoidaga amal qilar edi. O'quvchilarimga doim o'zlarining hayotida yoki kundalik ular duch keladigan voqealardan misollar keltirar edim va bu juda foydali bo'lar edi. Alloh Taolo Qur'onda ko'p oyatlarda insonlarga misollar orqali tushuntiradi. Bu uslub orqali eslatmalar yanada tushunarli va esda qoladigan bo'ladi. Quyida Qur'ondagi ba'zi misollarni keltiraman:

Ankabut surasi, 41-oyat:

"Allohdan o'zga homiylar tutganlarning misoli o'ziga uy yasagan o'rgimchakning misoliga o'xshaydi. Albatta, uylarning eng zaifrog'i o'rgimchak uyi. Koshki buni bilsalar edi!"

Bakara surasi, 26-oyat:

"Albatta, Alloh bir chivin yoki undan ulug'roq narsaning misolini keltirishdan hayiqmaydi. Imon keltirganlar esa buni albatta Parvardigorlari tomonidan haq ekanligini bilurlar. Kofirlar esa: «Alloh bu misol bilan nima demoqchi?» derlar. U (misol) bilan ko'p kimsalarni adashtirur va ko'p kimsalarni hidoyatga boshlaydur. Lekin U (misol) bilan faqat itoatsizlarni adashtirur."

Rum surasi, 28-oyat:

"U sizlarga o'zlaringizdan bir misol keltirdi: «Sizlarga Biz rizq qilib bergan narsalardan sizning xizmatchilaringizdan (qulingizdan) ham barobar sheriklar bormi? Sizlar unda (qulingiz bilan) teng bo'lib, ulardan o'zlaringizdan hadiksiraganingizdek, (ulardan ham) hadiksirasiz. Aqlini ishlatadigan qavm uchun oyatlarni shunday tafsil qilurmiz."

Hashr, 21-oyat:

"Agar Biz ushbu Qur'onni biror tog' ustiga nozil qilganimizda edi, sen albatta uni Allohdan qo'rqib, bo'ysunib, yorilib ketganini ko'rgan bo'lur eding. Ushbu misollarni odamlar uchun keltiramizki, shoyad o'ylab ko'rsalar."

Alloh o'zi yaratgan bandalariga qanday murojaat qilishni juda yaxshi biladi. Bu Alloh bizga ta'lim bergan qoidadir. Shu sabab ham har birimiz bu qoidaga amal qilsak, insonlar orasida bir-birini tushunmaslik kamayadi deb o'ylayman.

Menga qolsa esimni taniganimdan boshlab kitob yozgan bo'lar edim. Har yili bir kitob yozib shu orqali mendagi ilm va saviyani kuzatib borar edim.

Insha'Alloh buni farzandlarimda qo'llash niyatim bor.

Bu yozayotgan kitoblarim avvalo farzandlarim uchun hamdir.

Aslida bu kitoblar menda qolgani deb aytish uchun ham arzimastligini juda yaxshi bilaman. Ammo Alloh qodir qilganicha nimanidir yetkazishga harakat qildik.

Ilm olishda to'xtang!

Ustozimiz aytganlaridek:

O'qishdan to'xtasam, o'sishdan to'xtayman.